

12-dars. AMALIY MASHG'ULOT.

FAYL VA PAPPALAR HOSIL QILISH VA AMALLAR BAJARISH

1-mashq. Ish stolida **Пуск** tugmachasini bosib, quyidagi buyruqlar ketma-ketligini bajaring:



Все программы → **Стандартные** → **Проводник** → **Диск D:** → Oynachaning bo'sh sohasida sichqonchanning o'ng tugmachasi bosiladi. Hosil bo'lgan kontekst-menyudan **создать** → **Папку** buyrug'i tanlanadi.

Hosil bo'lgan "Новая папка" nomini o'chirib, uni "Mening ijodlarim" deb nomlang va Enter tugmachasini bosib. Hosil bo'lgan papkani sichqonchanning chap tugmachasini tezlik bilan 2 marta bosib oching va unda quyidagi amallarni bajaring: **создать** → **Текстовый документ**. Ish stolida Блокнот dasturi interfeysi ochiladi.


Dastur oynachasida **"Aqli maktab"** yoki **"Smart School"** deb sarlavha qo'ying va shu mavzuda 5–6 satrdan iborat hikoya tuzing.

Hikoyani saqlab qo'yish uchun dastur menyusining **Файл** → **Сохранить как** → buyrug'ini tanlang va hosil bo'lgan oynachadagi fayl nomi satrida **"Smart.txt"** nom bering. Endi bu fayl avtomatik tarzda **"Mening ijodlarim"** papkasiga saqlanib qoladi.

2-mashq. Kompyuter ish stolida sxemaga mos **"Yil"** katalogini yarating va avvalgi mashg'ulotda yaratilgan **"Smart.txt"** fayl nusxasini har bir faslning biror papkasiga saqlab qo'ying.



3-mashq. Quyida berilgan katalogda "fayl yo'lini" aniqlang va jadvalni to'ldiring.



A)	Документ.txt	C:\ Hujjatlar\ Xobbi\Документ.txt
B)	Xobbi	C:\....
C)	Документ.xls	
D)	Документ.doc	
E)	Tezislar	
F)	Ta'lim	
H)	Ishchi Hujjatlar	

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR



- Savollarga yozma javob bering:
 - Bitta papkaning ichida bir necha papka yaratsa bo'ladimi?
 - Bir xil nomli fayl yoki papka yaratish mumkinmi?
 - Fayl yoki papkalarni ochishning qanday usullari bor?
- Quyidagi mulohazalarning to'g'ri yoki noto'g'riligini belgilang:
 - Fayllar faqat tashqi xotirada bo'ladi. Ha ___Yo'q ___
 - Fayllarni xotirada faqat nom berib saqlash mumkin. Ha ___Yo'q ___
 - Papka faylning ichida joylashishi mumkin. Ha ___ Yo'q___
 - Faylni Создать buyrug'i orqali yaratish mumkin. Ha ___ Yo'q___
 - Fayl kengaytmasini foydalanuvchining o'zi belgilaydi. Ha ___Yo'q ___
 - Papkani hosil qilish, undan nusxa olish va uni o'chirish mumkin. Ha ___Yo'q ___
 - Papkaning ichida faqat 1 tagina papka yaratish mumkin. Ha__Yo'q__
- Quyidagi rasmlarda ko'rsatilgan qaysi vositalar fayllar saqlanishiga bog'liq emas?

